



Ingliz tilida so'zlashuvchilarga sharq tillarini qo'shimcha til sifatida o'qitish metodikasi. G'arb va Sharq tillarining o'xshashlik va farqli jihatlari

Abdurahmonova Muslimaxon Fazliddin qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

abdurakhmonovamuslimaxon@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada butun dunyo bo'yicha yetakchi bo'lgan tillar hisoblangan ingliz va xitoy tillariga oid fikrlar hamda faktlar keltirilgan. Ikki yirik tilning alifbo tartibi hamda grammatikasi tahlil qilingan. O'xshashlik va farqli tomonlari ajratilib, misollar yordamida tushuntirib o'tilgan. Maqolada xitoy tilini o'rganishni boshlayotgan ingliz tili so'zlashuvchilari uchun boshlang'ich darajadagi bilim va ko'nikmalar haqida so'z yuritilgan. Ingliz, xitoy va o'zbekcha misollar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Tillar, katta guruh, AQSH, Xitoy, Shan sulolasi, dialektlar, pinyin, tonlar, HSK, kalitlar, "to be" fe'li, o'xshashlik, tafovutlar.

Abstract: This article presents opinions and facts about the world's leading languages, English and Chinese. The alphabet and grammar of two major languages are analyzed. Similarities and differences are distinguished and explained with the help of examples. The article discusses basic knowledge and skills for English speakers who are beginning to learn Chinese. English, Chinese and Uzbek examples are cited.

Key words: Languages, big group, USA, China, Shan Dynasty, dialects, pinyin, tones, HSK, radicals, verb "to be", similarities, differences.



Ma'lumki, yer yuzida jami 7 milliard aholi mavjud bo'lib, ular 7 mingdan ortiq til vositasida bir-birlari bilan muloqot olib boradilar. Dunyo mamlakatlarida qo'llaniluvchi shunday tillar mavjudki, ularning ba'zilarida milliardlab aholi so'zlashsa, ba'zilarining so'zlashuvchilari atigi yuz-yuz ellik kishini tashkil etadi. Ushbu faktorni hisobga olgan holda, muloqot uchun foydalanuvchi tillar katta va kichik guruhlariga ajratiladi. Aholi soni hamda davlat tilida so'zlashuvchilar miqdori jihatidan yuqori o'rinlarda turuvchi AQSH, Ispaniya, Xitoy, Fransiya kabi mamlakatlarning davlat tillari katta guruh tarkibiga kiradi. Ular yer yuzida keng tarqalganligi bois ko'p insonlar ushbu tillarni o'rganadilar.

Sir emaski, ingliz tilida so'zlashuvchilar 2 xil toifaga ajratiladi: 1-so'zlashuvchi tillari ingliz bo'lganlar hamda ushbu tilda nativ emas, balki umri davomida o'rganib muloqot qiluvchilar. Ikki toifa tarkibidagilar uchun qo'shimcha til o'rganish aynan o'zlari ravon muloqot olib bora oladigan tillari, ya'ni ingliz tilidan foydalangan holda amalga oshiriladi. Ammo ba'zi tillarni o'rganishda ularning grammatikalari hamda tovush va harflar tizimi o'rtasidagi tafovutlar tufayli qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin. Ayniqsa, gap sharq tillari haqida ketganda ushbu farqlar yaqqol ko'zga tashlanadi. Yapon, xitoy, koreys kabi tillar o'zgacha harf va tovushlar tizimi hamda grammatikasi jihatidan ingliz tilidan katta farq qiladi. Ushbu tafovutlarni xitoy tili misolida ko'rib chiqamiz.

Xitoy davlati aholisi soni ko'pligi bilan ajralib turadi. Dunyo iqtisodiyoti hamda ishlab chiqarish sohasidagi ulushi jihatidan Xitoy jahonning yetakchi mamlakatlaridan biridir. Aynan shu sabablar tufayli so'nggi vaqtlarda xitoy tilini o'rganish tobora ommalashmoqda. Xitoy tili 6 ming yillik tarixga ega bo'lib, ilk bora Shan sulolasi davriga oid manbalarda uchraydi. Xitoy tilidagi har bir so'zni ifodalash uchun turli belgilardan foydalaniladi. Ushbu belgilar bir necha mingdan ortiq bo'lib, odatiy hayotda muloqot olib borish yoki kitoblarni mutolaa qilish uchun o'rtacha 2-2.5 mingta belgilarni taniy olish talab etiladi. Boshqa tillarda bo'lgani kabi xitoy tilida ham bir necha shevalar mavjud. Ushbu shevalar xilma-xilligi mamlakat hududining katta ekanligiga ham bog'liqdir. Dialektlar turlicha bo'lsa-da, ularning



yozma muloqot shakllari o'rtasida katta farq mavjud emas. Xitoy tilining yozma shakli 3 xil bo'lib, ular an'anaviy, soddalashtirilgan hamda norasmiy kabilarga bo'linadi. Hozirgi kunda Xitoy mamlakatida istiqomat qiluvchilar hamda ushbu tilni xorijiy til sifatida o'rganuvchilar uning soddalashtirilgan shaklidan foydalanadilar.

Xitoy tilidagi so'zlarning odatiy alifbodan foydalangan holda transkripsiya qilinishi "pinyin" deb ataladi. Xitoy tilining pinyin tizimidan, asosan, g'arb (ingliz) alifbosini yaxshi biluvchilar hamda xitoy tilini endigina o'rganishni boshlaganlar foydanadilar:

中国 – zhōngguó (Xitoy)

学生 – xuésheng (o'quvchi)

Ushbu so'zlarning pinyin'lari zhōngguó va xuésheng kabilardir. Har bir so'zning pinyin'larini yod oldirish orqali o'quvchilarda suhbat mavzusini to'liq anglay olish qobiliyati shakllantiriladi.

Xitoy tilida ton atamasi ham mavjud bo'lib, uning yordamida so'zlarni to'g'ri talaffuz etish mumkin. Xitoy tilida tonlar 4 xil ifodalanadi:

Shū (书 - kitob) – 1-ton;

Rén (人 - odam) – 2-ton;

Wǒ (我 – men) – 3-ton;

Xièxie (谢谢 - rahmat) – 4-ton.

Ushbu tonlardagi so'zlarning talaffuzi bir-biridan farq qiladi va muloqotda kerakli konteksni yaratishga xizmat qiladi. Tonlarni bir-biridan farqlash hamda so'zlarni tonlar qoidasiga ko'ra talaffuz etish orqali so'zlashish qobiliyatini yuqori darajaga olib chiqish mumkin.



Xitoy tilini o'rganish davomida o'quvchilar bilim darajalariga qarab ajratib boriladi. Xitoy tilini o'rganayotganlar avvalo HSK1 kitobidan foydalangan holda tayyorgarlik olib boradilar. Yuqorida keltirilgan ton hamda pinyin tushunchalari ham HSK1 yordamida o'quvchilarga tushuntiriladi. Xitoy tilida HSK1 dan HSK6 gacha bo'lgan darajalar mavjud.

Xitoycha so'zlarni o'rganishning oson usullaridan biri bu kalitlardir. Kalitlar so'zlarning yasalishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Xitoy tilida jami bo'lib 214 ta kalit mavjud. Kalitlar yaratilishida shu kalit ifodalayotgan narsalarning tashqi ko'rinishi asosiy rol o'ynaydi:

山 (shān) – tog'

儿 (ér) – oyoqlar

目 (mù) – ko'z

Yuqoridagi misollardan ko'rinib turibdiki, har bir kalit o'zi ifodalayotgan so'zga o'xshatish orqali yod olinadi. Aniqroq aytilsa, 儿 (ér) kalitining ko'rinishi chindan ham inson oyoqlariga o'xshaydi. 山 (shān) kalitidagi 3 qismni esa tog'ning 3 qoyasiga o'xshatishimiz mumkin.

Xitoy tilini o'rganayotganlar undagi so'zlar va grammatik qoidalarni ingliz tiliga solishtirib o'rganadilar. Garchi so'zlar talaffuzi o'xshamasa-da, ba'zi grammatik qoidalar bir-biriga o'xshaydi. Buni ingliz tilidagi "bo'lmoq" ("to be") so'zi misolida ko'rishimiz mumkin. Xitoy tilida "Men shifokorman" gapi quyidagicha ifodalanadi:

我是医生。(Wǒ shì yīshēng) – I **am** a doctor.

Ushbu misolda "bo'lmoq" ("to be"), ya'ni "-man" "是" (shì) so'zi yordamida ifodalanadi. U esa ingliz tilidagi "am" ga to'g'ri keladi. Farqli jihati shundaki, ingliz tilida



“to be” 3 shaxsda turlicha ifodalansa (am, is, are), xitoy tilida faqatgina “是” (shì) qo’llaniladi.

Bunday o’xshashlik va farqli jihatlariga ko’plab misollar keltirish mumkin. Zero, ikki til ikki turli mintaqadagi davlatlarning rasmiy muloqot vositalaridir. Shu sababdan ham ularning o’rtasida boshqalarga nisbatan kattaroq tafovut bo’lishi tabiiydir.

Xulosa o’rnida aytish mumkinki, sharq tillarini o’rganishda yuqorida keltirilgan bir necha faktorlarga ahamiyat qaratilib, foydali usullarni amaliyotda qo’llash lozim. Bundan tashqari, sharq tillari, jumladan, xitoy tilida g’arb tillarida uchramaydigan ba’zi jihatlarni ko’rishimiz mumkin. Ayniqsa, alifbo tizimi katta farqlarga egadir. Lekin shunday bo’lsa-da, ayrim grammatik qoidalar ushbu tilda aynan takrorlanadi. Barcha jihatlarni o’rganib chiqish orqali o’rganuvchi kerakli natijaga erisha oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. <https://ethnomed.org/resource/chinese-language/>
2. HSK 1. T. Beijing language and culture university press. 8b.
3. HSK 1. T. Beijing language and culture university press. 22b.
4. HSK 1. T. Beijing language and culture university press. 3b.
5. HSK 1. T. Beijing language and culture university press. 64b.